XALQ DEPUTATLARI TERMIZ SHAHAR
KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 5-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-12-82, (+99876) 224-12-96

2022 - yil 25 - mart VI-45-34-8-121-K/22 Termiz shahar hokimligi

Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) sayloviga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 105-moddasi, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 23-moddasi, “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 8-, 11-12-moddalariga muvofiq, shuningdek fuqarolar yig‘inlari raislarining vakolat muddati 2022-yilning may oyida tugashi munosabati bilan xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi qaror qiladi:

1. Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari)ning navbatdagi saylovi 2022-yilning may oyida o‘tkazilsin.

2. Navbatdagi saylovda 37 nafar fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

2022-yil may oyida fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tadbirlar rejasi 1-ilovaga muvofiq;

Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi Termiz shahar komissiyasining tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovi bo‘yicha saylov byulleteni namunasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashiga:

2022-yilning 25-martiga qadar fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi komissiyasini tuzish;

har bir deputatga o‘z saylov okrugida fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishda faol qatnashish tavsiya etilsin.

5. Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi viloyat komissiyasi a’zolari joylarda fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi shahar komissiyasiga amaliy yordam ko‘rsatsin.

6. Termiz shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (G‘.Elamanov) fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish hamda o‘tkazishda fuqarolar yig‘inlariga ko‘maklashish, zarurat bo‘lganda ularni binolar, transport va aloqa vositalari bilan ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Termiz shahar Ichki ishlar bo‘limi (A.Normamatov) fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini o‘tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlasin.

8. Termiz shahar Tibbiyot birlashmasi (N.Xidayev), Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati (D.Maxamadiyeva) bilan birgalikda fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovi o‘tkaziladigan joylarda tibbiyot punktlari faoliyatini yuqori darajada tashkil etsin hamda sanitariya-gigiyena talablari va karantin qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilsin.

9. Termiz shaharidan viloyatga saylangan deputatlar fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi shahar komissiyasi tomonidan o‘tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etsin.

10. Termiz shahar hokimligi matbuot xizmati rahbari (O.Xudoyqulov) va “Termiz oqshomi” gazetasi muharriri (A.Saidmalikov)ga fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish hamda o‘tkazish jarayonlarini keng yoritib borish tavsiya etilsin.

11. Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi shahar komissiyasi fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovi yakunlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni umumlashtirsin hamda 2022-yil 1-iyunga qadar xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi axborot bersin.

12. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi kotibiyati (F.Abjalov) zimmasiga yuklansin.

13. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **I.B.Xudayberdiyev**

Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining
2022 yil 25 martdagi
VI-45-34-8-121-K/22-son qaroriga
1-ilova

2022-yilning may oyida fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha

TADBIRLAR REJASI

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
I. Tayyorgarlik bosqichi (fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq tashkiliy chora-tadbirlar)				
1.	Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi shahar komissiyaini tuzish, komissiya yig‘ilishini o‘tkazish	1. Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi shahar komissiyasini tuzish. 2. Komissiya a’zolari yig‘ilishini o‘tkazish va vazifalarini belgilash. 3. Komissiya a’zolarini Termiz shaharga biriktirish.	2022-yil 25-martgacha	Shahar komissiyasi, xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
2.	Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi shahar komissiyasini tuzish, komissiya yig‘ilishini o‘tkazish	1. Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi shahar komissiyasini tuzish. 2. Komissiya yig‘ilishini o‘tkazish va unda quyidagi masalalarni ko‘rib chiqish: - komissiya ish rejasini tasdiqlash; - komissiya a’zolarini mahallalarga biriktirish; - fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini fuqarolar yig‘ini yig‘ilishi shaklida hamda fuqarolarning vakillari yig‘ilishi shaklida o‘tkazishni ko‘rib chiqish; - saylov yoshiga to‘lgan fuqarolar umumiy sonining kamida o‘n ikki foizi miqdorida fuqarolar yig‘inlari kesimida vakillik normasini belgilash; - ishchi guruhlarni tuzish bo‘yicha fuqarolar yig‘ini (fuqarolar vakillarining yig‘ilishi)ni o‘tkazish jadvalini tasdiqlash; - Ishchi guruhlardan fuqarolar yig‘ini raisi lavozimiga nomzodlarga doir hujjatlarni qabul qilish muddati va tartibini belgilash kabi boshqa masalalarni ko‘rib chiqish.	2022-yil 25-martgacha	Viloyat komissiyasi, Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi shahar komissiyasi, xalq deputatlari Termiz Kengashi
3.	O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun-mohiyatini mahallalar kesimida tushuntirish	1. “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida”gi Qonun mazmun-mohiyatini mahallalarda tushuntirish maqsadida alohida reja-jadval ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Huquqshunos va soha mutaxassislari tomonidan mahallalarda O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida”gi Qonuni mazmun-mohiyatini tushuntirish.	2022-yil 25-martgacha reja-jadval asosida	Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi deputatlari, shahar Adliya bo‘limi, Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi va shahar hokimligi yuriskonsulti

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
4.	Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish hamda o‘tkazishga doir tavsiyalar va namunaviy hujjatlar to‘plamini tayyorlash	1. Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish hamda o‘tkazishga doir tavsiyalar va namunaviy hujjatlar to‘plami loyihasini tayyorlash. 2. Tavsiyalar va namunaviy hujjatlar to‘plami loyihasini manfaatdor idora va tashkilotlar bilan kelishish. 3. Kelishilgan tavsiyalar, namunaviy hujjatlarning elektron to‘plamini Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi komissiyalar tomonidan fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruhlariga (keyingi matnlarda – Ishchi guruhlar) yetkazish.	2022-yil 25-martgacha	Shahar komissiyasi, Adliya bo‘limi, Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi
5.	“Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun-mohiyatini keng tushuntirish, aholini saylov jarayonlarida faolligini oshirishga qaratilgan teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar, ijtimoiy roliklar hamda maqolalar tayyorlash	1. Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o‘tkazish jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida yoritish bo‘yicha media-reja ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar, ijtimoiy roliklar ssenariysini ishlab chiqish. 3. Tayyorlangan teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar, ijtimoiy roliklar va maqolalarni ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish	2022-yil 25-martgacha media-reja asosida	“Ishonch” teleradiokompaniyasi, “Termiz oqshomi” gazetasi, Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi
6.	Saylov xarajatlari uchun mablag‘ ajratish	Fuqarolar yig‘inlari raislar (oqsoqollari) saylovini bo‘yicha xarajatlar smetasi	2022-yil 31-martgacha	Shahar komissiyasi, Moliya bo‘limi, Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
7.	Hududlar, fuqarolar yig‘inlari kesimida saylov yoshiga to‘lgan fuqarolarning umumiy ro‘yxatini shakllantirish	1. Mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida saylov yoshiga to‘lgan fuqarolarning umumiy soni va ro‘yxatini shakllantirish bo‘yicha so‘rovnomalar yuborish. 2. Saylov yoshiga to‘lgan fuqarolarning umumiy soni bo‘yicha to‘plangan ma’lumotlarni umumlashtirish.	2022-yil 31-martgacha	Shahar komissiyasi, shahar statistika bo‘limi, Ichki ishlar bo‘limi, Termiz shahar hokimligi
8.	Fuqarolar vakillarining yig‘ilishi shaklida saylov o‘tkaziladigan fuqarolar yig‘inlarini aniqlash	Fuqarolarning vakillari yig‘ilishi shaklida o‘tadigan fuqarolar yig‘inlari ro‘yxatini shakllantirish va sonini aniqlash.	2022-yil 31-martgacha	Shahar komissiyasi, Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi shahar komissiyasi
9.	Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi o‘tkaziladigan manzil va ob’yektlarni aniqlash va ro‘yxatini shakllantirish	1. Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi o‘tkaziladigan manzil va ob’yektlarni aniqlash. 2. Termiz shahar fuqarolar yig‘inlari kesimida saylov o‘tkaziladigan manzil va ob’yektlar ro‘yxatini shakllantirish.	2022-yil 31-martgacha	Shahar komissiyasi, Termiz shahar hokimligi

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
10.	Ishchi guruhlarini tuzish yuzasidan fuqarolar yig‘ini (fuqarolar vakillarining yig‘ilishi)ni o‘tkazish	1. Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi shahar komissiyasi tomonidan tasdiqlangan jadvalga asosan fuqarolar yig‘ini (fuqarolar vakillarining yig‘ilishi)ni chaqirish to‘g‘risida kengash qarorini qabul qilish. 2. Fuqarolar yig‘ini (fuqarolar vakillarining yig‘ilishi)ni o‘tkazish va unda quyidagi masalalarni ko‘rib chiqish: - ishchi guruhini tuzish va tarkibini tasdiqlash; - fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi Termiz shahar komissiyasi belgilagan vakillik normasi asosida saylov yoshiga to‘lgan fuqarolarning umumiy sonining o‘n ikki foizidan kam bo‘lmagan miqdorida mavjud ko‘chalar va uylarga taqsimlash; - ishchi guruh a’zolarini hududdagi hovlilar, uylar, ko‘chalarga biriktirish hamda fuqarolar vakillarini saylash bo‘yicha umumiy yig‘ilishlarini o‘tkazish jadvalini tasdiqlash; - fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi Termiz shahar komissiyasi tomonidan belgilangan vakillik normasi asosida mahallalardagi mavjud hovlilar, uylar, ko‘chalarga taqsimlash; - saylov o‘tkaziladigan sana, vaqt va joyini belgilash; - fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o‘tkazish masalalari yuzasidan aholi o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib borish kabi boshqa masalalarni ko‘rib chiqish.	2022-yil 31-martgacha	Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi Termiz shahar komissiyasi, shahar, mahalla fuqarolar yig‘inlari

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
11.	Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish hamda o‘tkazishga ko‘maklashuvchi shahar komissiyasi va ishchi guruhini O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi va “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida”gi qonunlar matnlari, qonunosti hujjatlari kiritilgan to‘plam bilan ta’minlash	1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi va “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida”gi qonunlar matnlari, qonunosti hujjatlari kiritilgan to‘plamni tayyorlash. 2. To‘plamni chop etish va hududlardagi ko‘maklashuvchi komissiyalar va ishchi guruhlariga yetkazish.	2022-yil 31-martgacha	Shahar komissiyasi, Adliya bo‘limi, Moliya bo‘limi, Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi, “Mahalla” xayriya jamoat fondi
12.	Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi shahar komissiyasi hamda ishchi guruhi a’zolari uchun seminar-treninglar o‘tkazish	1. Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) sayloviga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish, fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi Termiz shahar komissiyasi hamda ishchi guruhlar ishini tashkil etish o‘quv dasturini tayyorlash va tasdiqlash. 2. Jadvalga muvofiq hududiy seminar-treninglar tashkil etish va o‘tkazish.	2022-yil 20-aprelgacha	Shahar komissiyasi, Xalq deplari Termiz shahar Kengashi deputatlari, Adliya bo‘limi, Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi, Termiz shahar hokimligi
13.	Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini o‘tkazish uchun yashirin ovoz berish kabinalari, saylov qutilari va zarur anjomlar bilan ta’minlash	Termiz shahar hokimligi bilan birgalikda fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini o‘tkazish uchun zarur miqdorda yashirin ovoz berish kabinalari, saylov qutilari va zarur anjomlar bilan ta’minlash.	2022-yil 20-aprelgacha	Termiz shahar hokimligi, Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
14.	Saylov byulletenlarining fuqarolar yig‘inlariga yetkazilishini ta’minlash	1. Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi Termiz shahar komissiyasi hamda Ishchi guruhi tomonidan saylov byulletenlarini ehtiyojdan kelib chiqib belgilangan tartibda chop etish. 2. Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) sayloviga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish, fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi Termiz shahar komissiyasi tomonidan saylov byulletenlarini fuqarolar yig‘inlariga yetkazilishini ta’minlash.	Saylovdan kamida besh kun oldin Saylov kunidan kamida 5 kun Oldin	Shahar komissiyasi, Termiz shahar hokimligi
II. Asosiy bosqich (fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini o‘tkazish, saylov yakunlarini chiqarish, OAVda e’lon qilish)				

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
15.	Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar ko‘rsatish	1. Ishchi guruhi tomonidan tegishli hududda doimiy yashovchi fuqarolarning fikrini inobatga olgan holda fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar bo‘yicha takliflar va ularning hujjatlarini tayyorlash. 2. Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlarning o‘z nomzodi ko‘rsatilishiga yozma roziligini ilova qilgan holda ularning hujjatlarini shahar hokimi bilan kelishish uchun tegishli komissiyaga taqdim etish. 3. Termiz shahar hokimi tomonidan uch kun muddatda fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga ko‘rsatilgan nomzodlarning hujjatlarini ko‘rib chiqib, o‘zining asoslantirilgan xulosalarini ishchi guruhlarga topshirish uchun tegishli komissiyaga yuborish. 4. Tegishli komissiya tomonidan bir kun muddatda fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga ko‘rsatilgan nomzodlar bo‘yicha shahar hokimining asoslantirilgan xulosalarini ishchi guruhlarga yetkazish.	2022-yil 10-aprelgacha Saylovdan kamida o‘n kun oldin	Ishchi guruhlar, Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi shahar komissiyasi

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
16.	Fuqarolar yig‘ini (fuqarolar vakillarining yig‘ilishi) o‘tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash hamda bu haqda tegishli mahallada yashovchi fuqarolarni xabardor qilish. Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar haqidagi axborotni fuqarolar yig‘ini binosiga va guzarlarga osib qo‘yish hamda veb-saytlarga joylashtirish	1. Tegishli hududda yashovchi fuqarolarga fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini o‘tkazish kuni, vaqti va joyi haqida xabar berish. 2. Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar haqidagi axborotni fuqarolar yig‘ini binosiga va guzarlarga osib qo‘yish. 3. Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o‘tkazish, fuqarolar yig‘ini (fuqarolar vakillarining yig‘ilishi) o‘tkaziladigan sana, vaqt va joy, fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar to‘g‘risidagi axborotni Termiz shahar mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limlarining rasmiy veb-saytlariga joylashtirish.	Saylovdan kamida besh kun oldin	Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi shahar komissiyasi, Ishchi guruhlar
17.	Termiz shaharda fuqarolar yig‘inlari kesimida fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini o‘tkazish jadvalini tayyorlash	1. Ishchi guruhlardan fuqarolar yig‘inlarida saylov o‘tkazish kuni, vaqti, joyi haqidagi ma’lumotlarni olish va umumlashtirish. 2. Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi shahar komissiyasi tomonidan fuqarolar yig‘inlari kesimida saylovni o‘tkazish jadvalini tasdiqlash.	2022-yil 20-aprelgacha 2022-yil 25-aprelgacha	Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi shahar komissiyasi, Ishchi guruhlar
18.	Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini o‘tkazish	Saylovni yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkazish.	Jadvalga muvofiq	Ishchi guruhlar, Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi shahar komissiyasi

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
19.	Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) takroriy saylovini o‘tkazish	Qonunda belgilangan hollarda fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) takroriy saylovini o‘tkazish.	Saylov o‘tkazilgan kundan keyin 1 oy muddatda	Ishchi guruhlar, Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi shahar komissiyasi
20.	Shahar komissiyasiga axborot taqdim etish, shuningdek, fuqarolar tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalarni umumlashtirish	1. Saylov jarayoni to‘g‘risida viloyat komissiyasiga axborot berib borish. 2. Saylovni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha fuqarolar tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalarni umumlashtirish.	Har haftada Saylov yakunlari bo‘yicha	Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi Termiz shahar komissiyasi
21.	Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovining natijalarini chiqarish, ularni umumlashtirish, ko‘rib chiqish va keng jamoatchilikka yetkazish uchun viloyat komissiyasiga taqdim etish	1. Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi Termiz shahar komissiyasi tomonidan saylov natijalarini chiqarish. 2. Saylov natijalari to‘g‘risida axborotni viloyat komissiyasiga taqdim etish. 3. viloyat komissiyasi tomonidan saylov natijalarini umumlashtirish va ko‘rib chiqish.	2022-yil 5-iyungacha 2022-yil 8-iyungacha	Viloyat komissiyasi, Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi shahar komissiyasi
22.	Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi natijalarini jamoatchilikka yetkazish	1. Saylov yakunlari bo‘yicha jurnalistlar uchun brifing tashkil etish. 2. Saylov yakunlarini ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish.	2022-yil 15-iyungacha	Shahar komissiyasi, “Ishonch” teleradiokompaniyasi va “Termiz oqshomi” gazetalari

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
23.	Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi o‘tadigan ob’yektlarda xavfsizlikni ta’minlash, jamoat tartibini saqlash hamda tez tibbiy yordam xizmatini tashkil etish	1. Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini o‘tkazish jadvaliga muvofiq saylov o‘tadigan ob’yektlarida tez tibbiy yordam xizmatini tashkil etish. 2. Saylov o‘tkaziladigan joylarda sanitariya-gigiyena talablari va karantin qoidalariga rioya qilinishini tashkil qilish.	Saylovni o‘tkazish jadvaliga muvofiq	Ichki ishlar bo‘limi, Shahar tibbiyot birlashmasi, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati, Termiz shahar hokimlii
III. Saylovdan keyingi bosqich (fuqarolar yig‘ini organlarini shakllantirish, raislarini o‘qitish, ularning bilimlarini oshirish)				
24.	Fuqarolar yig‘ini kengashini shakllantirish, fuqarolar yig‘inlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha komissiyasi va taftish komissiyasini saylash	1. Fuqarolar yig‘ini (fuqarolar vakillarining yig‘ilishi)ni o‘tkazish. 2. Fuqarolar yig‘ini kengashini shakllantirish. 3. Yig‘in faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha komissiyasi va taftish komissiyasini saylash.	Saylov natijalari bo‘yicha 1 oy davomida	Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi, shahar, hamda mahalla fuqarolar yig‘inlari
25.	Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) uchun fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining tashkiliy-huquqiy asoslari, raislarning huquq va majburiyatlarini tushuntirish va amaliyotda qo‘llash bo‘yicha o‘quv seminarlari tashkil etish	1. Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli)ni mahalla faoliyatiga oid bilim va malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv seminarlari dasturini ishlab chiqish. 2. Hududlarda o‘quv seminarlarini alohida reja asosida tashkil etish va o‘tkazish.	2022-yil 15-iyungacha 2022-yil 1-iyulgacha	Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi, Termiz shahar hokimligi

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
26.	Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari)ning bilimlarini oshirish maqsadida seminar-treninglar o‘tkazish	1. Innovasion rivojlanish vazirligi bilan birgalikda fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) uchun o‘quv dasturini ishlab chiqish. 2. Mahallalar kesimida seminar-treninglar o‘tkazish jadvallarini tasdiqlash. 3. O‘quv mashg‘ulotlarini alohida reja asosida tashkil etish va o‘tkazish.	2022-yil 30 iyungacha 2022-yil 20-iyulgacha	Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi, Davlat boshqaruvi akademiyasi, Termiz shahar hokimligi
27.	Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari)ni axborot kommunikasiya texnologiyalari bo‘yicha bilimlarini oshirish	1. Axborot kommunikasiya texnologiyalari vazirligi bilan birgalikda fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) uchun o‘quv dasturini ishlab chiqish. 2. Mahallalar kesimida seminar-treninglar o‘tkazish jadvallarini tasdiqlash. 3. O‘quv mashg‘ulotlarini alohida reja asosida tashkil etish va o‘tkazish.	2022-yil 20-iyulgacha 2022-yil 20-avgustgacha	Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi, Termiz shahar hokimligi

Xalq deputatlari Termiz shahar
Kengashining
2022 yil 25 martdagi
VI-45-34-8-121-K/22-son qaroriga
2-ilova

Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi shahar komissiyasi TARKIBI

Komissiya raisi

1.	Mustafaqulov Abduqodir Djuraxolovich		Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi

Komissiya raisining o‘rinbosarlari

2.	Abjalov Farrux Saparovich	-	Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi kotibiyati mudiri
3.	Meyliyev Zokir Hurramovich	-	Shahar hokimining o‘rinbosari - mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i
4.	Kravchenya Gennadiy Nikolayevich	-	Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining Qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi o‘rinbosari
5.	Raxmatullayev Burxon Nasriddinovich	-	Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi a’zosi
6.	Sharafutdinova Oydin Ximayitdinovna		Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi a’zosi
7.	Xudayberdiyev Dilshod Boymurotovich		Shahar hokimligi Bosh yuriskonsulti
8.	Tavasharov Ilxom Radjapovich	-	Termiz shahar hokimining Tashkiliy-adrlar guruhi rahbari
9.	Jalolov Erkin Irgashovich		Termiz shahar mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi tashkiliy nazorat va tahlil bo‘yicha bosh mutaxassisi
10.	Xoliyorov Baxtiyor Nurboyevich	-	O‘zbekiston talim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Termiz shahar bo‘linmasi raisi
11.	Ostonaquluv Nuriddin Ismadiyorovich	-	Termiz shahar mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘ining keksalar va faxriylarni qo‘llab-quvvatlash, yoshlarda vatanparvarlik ruhini mustahkamlash bo‘yicha o‘rinbosari
12.	Jabborov Abdusalim G‘apporovich	-	Shahar Adliya bo‘limi boshlig‘i
13.	Jumaqulov Tojiddin Muxiddinovich	-	Termiz shahar Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari-jamoat xavfsizligi xizmati boshlig‘i
14.	Saloxitdinov Jaxongir Xiloliddin o‘g‘li	-	O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Termiz shahar bo‘limi boshlig‘i
15.	Saidmalikov Abdumannon Geldimuratovich	-	“Termiz oqshomi” gazetasi bosh muxarriri
	Xudoyqulov Odil Chorshanbiyevich	-	Termiz shahar hokimligining Axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi

Xalq deputatlari Termiz shahar
Kengashining
2022 yil 25 martdagi
VI-45-34-8-121-K/22-son qaroriga
3-ilova

Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi “_____” mahalla

fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi bo‘yicha

SAYLOV BYULLETENI

2022-yil _____-may

Rasm uchun joy	**Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodning familiyasi, ismi, otasining ismi va tug‘ilgan yili**	**O‘zingiz yoqlab ovoz berayotgan nomzodning familiyasi qarshisida joylashgan bo‘sh katakka “+”, “ü”yoxud “x” belgilaridan birini qo‘ying**
	I.F.Sh., _____ yilda tug‘ilgan	

Agar byulletenning o‘ng tomonida joylashgan bittadan ortiq bo‘sh katakka “+”, “ü”yoxud “x” belgilaridan biri qo‘yilgan yoki bitta ham katakka bunday belgi qo‘yilmagan bo‘lsa, saylov byulleteni haqiqiy emas deb topiladi.

Izoh: Har bir byulletenning orqa tomoniga ishchi guruhi rahbari va bir a’zosi hamda fuqarolar yig‘iniga biriktirilgan tuman (shahar) ko‘maklashuvchi komissiyasi a’zosining imzosi qo‘yilib, fuqarolar yig‘inining muhri qo‘yilishi lozim.